



HAMSHIRANING ETIKALIK VAZIFALARI

Шодиев Амиркул Шодиевич

*Д.м.н., доцент кафедры нейрохирургии Самаркандского государственного
медицинского института*

Норкулов Нажмиддиу Уралович

*Ассистент кафедры нейрохирургии Самаркандского государственного
медицинского института*

Норкулов Сирожиддин Нажмиддинович

*Врач ординатор отделение нейрохирургии и челюстно-лицевой хирургии и
осложнение нейротравмы Самаркандского филиала Республиканского
специализированного научно практического медицинского центра
Травматологии и ортопедии*

Abdullayeva Shirinxon Tulabayevna

*Andijon viloyati Qo'rg'ontepa Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi
texnikumi maxsus fan o'qituvchisi*

Etika-so'zi yunonchadan – aehos so'zidan olingan bo;lib, yurish, turish, ahloq degan ma'nolarni bildiradi. Ahloq deganda kishilarning bir-biriga munosabati, jamiyatga, davlatga, vatanga, oilaga bo'lgan munosabati tushuniladi.

Ahloqiy tushunchalar – bularga burch, javobgarlik, qadr-qimmat, vijdon, nomus va baxt tushinchalari kiradi.

Burch – tibbiyot hodimining burchi insonparvarlik namoyon qilish, har doim bemorga yordam ko'rsatish, insonlarning ruhiy va jismoniy sog'lig'iga qarshi qaratilgan, ular hayotiga xavf soluvchi hattin- harakatlarda qatnashmaslik.

Javobgarlik-tibbiyot hamshirasi o'z burchini bajarishda saranjom sarishta bo'lish, mas'uliyatini his qilish, kasbini suyiste'mol qilmaslik o'z zimmasidagi vazifani to'la , a'lo darajadan ado etishda ifodalanadi.

Nomus- tushunchasi onglilikni, o'z obro'si va shuxratini, o'z qadr-qimmatini saqlashga aytiladi.

Qadr-qimmat- bu kasb qadr-qimmatini, ish malakasini doim oshirishga bo'lgan doimiy intilishdir.

Vijdon- kishining ahloqiy tushunchasi, halollik, rostgo'ylik, adolat va ahloqiy softliko'z kasbini va boshqalar huquqlarini hurmat qilishdir.

Baxt- baxtli hayot tushunchasi salomatlik tushunchasidan ajralmasdir. Sog'lik yaxshi bo'lmasa, to'liq baxtning bo'lishi mumkin emas. Tibbiyot hodimining xulq-atvor ahloqi muammolarini korib chiqish vaqtida asosiy va umumiy masalalarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Umumiy masalalardan shartli ravishda ularning ikkitasini ajratib ko'rsatish mumkin.



- Ichki madaniyat qoidalariga mehnatga to'g'ri munosabat, intizomga, jamoat mulkiga ehtiyotkorlik bilan qarash, bemaslahat ish ko'rish va hamjihatlik tuyg'ulari kiradi.

- Tashqi xulq- atvor qoidalariga odob, xushmuomalalilik va tegishli tashqi ko'rinish qoidalariga rioya qilishdan iborat.(tozalik, poyabzal, kiyim-boshlar tozaligi, ortiqcha bezaklar va pardozning bo'lmasligi, oq xalat, qo'l qop va ish formalarining bo'lishi)

Tibbiyot hamshirasi aholi bilan ish olib borar ekan, o'zida ahloqiy, estetik va intellectual belgilarini shakllantira olishi va ana shu belgilar egasi bo'lishi kerak.

-Hamshiraning ahloqiy belgilari-bosiqlik, chidamlilik, rostgo'ylik, noziklik, hushmuomalilik, ochiq ko'ngillik, yoqimtoylik, mehribonlik.

-Hamshiraning Estetik belgilariga- oddiylik, kamtarlik, ochiq kamtarlik, shifohonada yahshi kayfiyat yarata olishlik kiradi.

-Intelektual belgilari- bilimdonlik kuzatuvchanlik, fahm- farosatlik, o'z kasbining ustasi bo'lishlik kiradi.

Aholiga yuqori darajada tibbiy xizmat ko'rsatish uchun chuqur bilim, malakali dunyoqarashi keng tibbiyot hodimlar talab etiladi. Jamiyatning rivojlanishi esa mazkur ehtiyojga zaruriyatni kuchaytirdi. Avvallari hamshiraga shifokorning ko'rsatmalarini bajaruvchi oddiy ijrochi sifatida qaralar edi. Hozirgi hamshiralar, bemorlar parvarishi bo'yicha mustaqil yo'nalishga ega bo'lib hamshiralik fanini rivojlanishiga hissalarini qo'shishlari kerak va qo'shib kelmoqdalar. Zamonaviy hamshira tibbiy muolajalar texnikasini bajarishini bilishi bilan birga, bemorning kasallik tufayli yuzaga kelgan va kelishi mumkin bo'lgan, ruhiy, ijtimoiy muammolarni aniqlay olishi va jamiyatdagi barcha kuchlarni ushbu muammolarga bartaraf etishga qarata olishi kerak va bemor bilan muloqotga kirish san'atini shunday egallash kerakki, u shirin so'zi, yumshoq muomalasi bilan bemorga hastalik girdobidan qutilishga yordam bera olsun. Zamon talablariga ko'ra hamshiraning faoliyat ko'rsatishi doirasi, ularga tashkilotchilik, pedagogic yo'nalishlarida ish olib borishlari, talab etilmoqda. Hamshiralik ishining mohiyati asrlar davomida jamiyat talablari va insonlarning yashash sharoitlariga qarab o'zgarib borgan.

1859 yilda F. Naytingeyl "Parvarish haqidagi hotiralar" kitobida hamshiralik ishiga 1 bo'lib ilmiy aniqlik kiritdi. Hamshiralik ishi bu bemorni sog'aytirish maqsadida uning atrofidagi muhitdan foydalanishdir deb hisoblaydi. Hamshiralik parvarishdan maqsad, bemor o'z kuchini faollashtirish uchun unga qulay sharoit yaratishdan iborat, yani bemorga ozodlik, saramjon-sarishtalik, toza havo, to'g'ri ovqatlanish tashkil qilish nazarda tutiladi.

Kasallikning ichki mohiyati

Bemorning kasllikni sezishi, salomatligidagi o'zgarishlarni farqlay bilishi, ko'z oldiga keltirishi, xastalik sababini anglab yetish, davolash diagnostika muolajalariga yondoshish-umumlashgan holda kasallikning ichki mohiyati haqida tushunchalarini





anglatadi. Shu tushunchaga ega yoki ega emasligi xisobga olinib bemorlar ikki toifaga bo'linadi.

1. **Ijobiy qarashga ega bo'lgan kishilar**, kasallikni ichki mohiyatini tushunib, o'z salomatligiga to'g'ri munosabatda bo'luvchi bemorlar.

2. **Kasallikni ichki mohiyatini tushunmay**, salomatligiga noto'g'ri munosabatda bo'luvchi bemorlar-salbiy qarashga ega bo'lgan kishilar – 1 – toifadagi bemorlar hamshira buyurgan hamma vazifalarni to'la to'kis bajaradigan va davolash diagnostika ishiga yordam beradilar. Ikkinchi toifadagi bemorlar esa hamshira ish faoliyatida qiyinchilik tug'dirib davolash jarayoniga zarar yetkazadilar, ular quyidagi hillarga bo'linadilar.

1) **Salbiy** – qoniqarsiz munosabatda bo'luvchilar.

2) **E'tiborsiz** – salomatligidagi kasallikni tan oladilar lekin, zarur choralarga rioya qilmaydilar.

3) **Beriluvchan** – ular arziyas o'zgarishlarga ortiqcha berilib, o'z kasalliklari bilan ovora bo'ladilar.

4) **Ipaxondrik** munosabatda bo'lish – bemor kasallik vahimasidan tushkunlikka tushib, o'zgarishlarni bo'rtib ko'rsatadilar.

5) **Utilitlar** – kasallik orqasidan ham moddiy, ham ma'naviy manfaatni ko'zlaydilar.

Bemorlar bilan ish olib borishda hamshira, bemorlar orasida bo'ladigan ayrim tushunchalarni ham mohiyatiga e'tibor bilan qarash zarur. Ular quyidagilar:

- **Egogeniya** – bemorni kasalligi tufayli o'z-o'ziga ta'sir etishdir, u salbiy va ijobiy bo'ladi. Hamshira bemorga doimo ijobiy ta'sir eta olishi lozim.

- **Egratogeniya** – bemorlarning o'zaro bir-biriga ta'siri.

- **Yatrogeniya** – tibbiyot xodimlarining noto'g'ri hatti harakatlari natijasida kelib chiqadigan bemordagi holatga aytiladi. Buning natijasida kelib chiqadigan kasallik yatrogen kasallik deb ataladi. Ularga quyidagilar sabab bo'ladi:

1) Kasallik tashxisini va natijalarini shoshma-shosharlik bilan ularga ma'lum qilish.

2) Davolash diagnostika muolajalarini noto'g'ri bajarish tushuntirish.

3) Hodimlarning mas'uliyatsizliklari.

4) Gospitalizm – bemorning kasalxona va uning sharoitiga moslashguncha bo'lgan vaqti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ziyayeva M.F., Xodjasheva M.D., Kasimova D.I., Xamedova M.A., Ochilov O'B. Kattalarda hamshiralik parvarishi. 1-qism. – T.: «Niso poligraf» nashriyoti, 2014.

2. Yusupova L.Yu., Burixodjayeva H.S., Shadiyeva Sh. Kattalarda hamshiralik parvarishi. 3-qism. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.

3. Барыкина Н.В., Зарянская В.Г. Сестринское дело в хирургии. – Ростовна-Дону: «Феникс», 2010.